

**“YOLG‘IZLIK VA ORZULAR QARAMA-QARSHILIGI:
DOSTOYEVSKIYNING “OYDIN TUNLAR” QISSASIDA QAHRAMON
RUHIYATI PSIXOLOGIK TAHLILI”**

Sidiqova Zarifaxon Zuxriddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fyodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” qissasi psixologik tanqid nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon — Orzuvchan yoshning ruhiy kechinmalari, uning yolg‘izlik, muhabbat va o‘zini anglash jarayonidagi ichki konfliktlari chuqur o‘rganiladi. Qissaning asosiy motivi bo‘lgan “fantastik realizm”, ichki monolog, psixologik portret hamda muallifning inson ruhiyati borasidagi falsafiy qarashlari asosiy tahlil ob’ektiga aylantiriladi. Qahramon va Nastenka obrazlari o‘rtasidagi munosabatlar psixologik kontekstda tahlil qilinib, badiiy tasvir vositalarining fikriy yuklamasi ochib beriladi. Tadqiqot Dostoyevskiy psixologik prozasining o‘ziga xos yo‘nalishlarini namoyon etadi. Mazkur maqolada asardagi bosh qahramonning psixologik portreti, uning ruhiy evolyutsiyasi, shuningdek Nastenka obrazining ta’siri tanqidiy-psixologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Dostoyevskiyning “fantastik realizm” deb atalayotgan uslubiga tayanib, qahramonlarning real hayot va xayolot o‘rtasidagi kechinmalari ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Dostoyevskiy, Oydin tunlar, psixologik portret, fantastik realizm, yolg‘izlik, ichki konflikt, ruhiy tahlil.

Kirish:

Rus realizmining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Fyodor Dostoyevskiy inson ruhiyatini yoritish borasida adabiyot tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlarida ijtimoiy hodisalar emas, balki insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, qo‘rquv va orzulari asosiy markazga qo‘yiladi. “Oydin tunlar” qissasi — Dostoyevskiyning 1848-yilda yozilgan ilk psixologik asarlaridan biri bo‘lib, unda muhabbatning nozik

kechinmalari, yolg'izlikning ruhiy bosimi, hayotdan orzuga qochish va insonning o'ziga bo'lgan ehtiyoji tasvirlanadi.

Fyodor Mixailovich Dostoyevskiy (1821–1881) XIX asrning eng chuqur psixologik realizm namoyandasi sifatida tanilgan. Uning “Jinoyat va jazo”, “Aka-ukalar Karamazovlar”, “Idiot”, “Telba”, “Yerto‘ladan maktublar” kabi asarlari inson qalbi tub-tubidagi qarama-qarshiliklarni ochishda beqiyos ahamiyatga ega. Dostoyevskiy asarlarida jamiyatdan chetda qolgan, ijtimoiy va ruhiy bosim ostidagi qahramonlar asosiy markazda turadi. “Oydin tunlar” esa uning romantik kechinmalar bilan sug‘orilgan, ammo baribir psixologik ruhiyatni yetakchilik qilgan ilk yirik asarlaridan biridir.

Asosiy qism:

Asar syujeti juda sodda, hajman oz ko‘ringaniga qaramay, undagi ruhiy qatlam nihoyatda murakkab. Ushbu asar boshlanishiga ajib tarif mavjud: "Faqat bir zumgina qalbingga yaqin turmoq uchun u yo tug‘ilganmikin!..(I. Turgenev)

Ayni shu satrlar ostidan boshlanadi asar, ayni shu jumla qatlariga yashiringan bir tuyg‘u ifoda etiladi satrma-satr. Bir zumgina... To‘liq baxtni his qila olish uchun tashqaridan kichik ko‘rinadigan katta fursat- bu! O‘zgasiga atalgan o‘zga sevgini o‘ziga qarashli deb o‘ylash va aynida adashish bu! Bu baxt–eng badbaxt !.."[1]. Tan olish joizki, asar ilk satrlardan kitobxonni o‘ziga butunlay jalb etib olib, ajib bir mujmallikni muhokama qilishga majbur etadi. Hamda asarni yanada jozibadorlik darajasini oshirgan yana bir qism bu boshqa asarlardan farqli o‘laroq bosh qahramon — ismi berilmagan “yosh xayolparast” — Sankt-Peterburgning oydin tunlarida o‘zining xayolot dunyosida yashaydi. Uning borlig‘i ikki qutbga bo‘linadi: real hayot — kunduzgi yolg‘izlik, odam bilan aloqa qilolmaslik, jamiyatga qo‘shilmaslik;

fantastik hayot — tunlardagi tasavvurlar, orzudagi muhabbat, romantiklik. Bu ikki olam qarama-qarshiligi Dostoyevskiyning keyingi asarlarida ham uchraydigan ichki konfliktlar seriyasining boshlanishi hisoblanadi. Qissa davomida muallif psixologik portret yaratishning asosiy metodlari — ichki monolog, o‘z-o‘ziga murojaat, portretning ruhiy kattalashuvi kabi usullardan foydalanadi.

Darhaqiqat, ushbu asarni o'qigan har kimda turli xil kechinmalar paydo bo'ladi. Misol uchun, 1860-yillarning boshlarida Dostoyevskiy Pushkinning rus madaniyatidagi rolini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan va uni „rus ruhi va rus ma'naviyatining "kuchli timsoli"[2], „Misr kechalari“ asarini esa „rus adabiyotidagi eng buyuk san'at asari“, „she'riyatimizning badiiy jihatdan eng mukammal asari“ deb atagan. Bu voqeadan biroz avvalroq esa 1859-yilda „I. S. Turgenev va uning faoliyati“ asarida Apollon Grigoryev ham „Oydin tunlar“ni tilga olib, asarni „sentimental naturalizm“ maktabining eng yaxshi namunalaridan biri deya ta'kidlaydi. Shunga qaramay, tanqidchining fikricha, hattoki shunday asar ham janrni inqirozdan qutqara olmadi.[3]

Qahramon hayotining markazida chuqur yolg'izlik turadi. U odamlar orasida bo'lsa ham, ular bilan bog'lana olmaydi. U o'zini „keraksiz odam“ sifatida his qiladi, ammo bu holatni o'zgartirish uchun irodaviy kuch topa olmaydi. Dostoyevskiy uning holatini o'zidan qochish, odamlar bilan muloqotdan qo'rqish, ichki tortinish, romantik fantaziyalarga berilish kabi belgilar orqali ko'rsatadi. Bu belgilar psixologiyada sotsial izolyatsiya va idealizatsiya orqali o'zini tasalli qilish holatlariga mos tushadi. Qahramonning yagona tasallisi fantaziya orqali hayotni almashtirishidir. U real hayotda bajara olmagan ijtimoiy rollarni xayolot olamida bajaradi: suhbatdosh bo'ladi, sevadi, qadrlanadi, e'tirof topadi. Bu mexanizm psixologiyada kompensator orzular sifatida talqin qilinadi.

Dostoyevskiy bu holatni „fantastik romantiklik“ deb ataydi.

Nastenka - samimiy, mehrga tashna, ammo hayot tajribasiga ega bo'lmagan, yashirin qo'rquvlari bor, buvisining etagiga ko'ylagi tang'ilgan 17 yoshli qiz.

U bosh qahramon uchun romantik ideal emas, balki haqiqiy inson. Qizning xayolparast hayotiga kirishi psixologik o'zgarishlarni jadallashtirib yubordi. U bilan o'tkazilgan to'rt kecha sabab qahramon xayoliy muhabbati va real sevgi o'rtasida muallaq qoldi. Nastenka qahramon hayotiga „yorug' nuqta“ bo'lib kiradi. U qahramonning fantaziya olamini vaqtincha real hayot bilan bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Uchrashuvdan so'ng qahramonimizning nutqi ravonlashadi, ichki monologlar real

muloqotga almashadi, mantiqsiz qo‘rquvlar kamayadi, dunyo endi “faqat qorong‘i” emas, balki “oydin tunlar” bilan yorishadi. Nastenka boshqa yigitni kutayotgani ma’lum bo‘lgach, qahramon ichki dunyosida keskin sinish ro‘y beradi. U o‘zini qayta yolg‘iz his qiladi. Endigina kurtak ochayotgan orzulari bahorgi dab-durustdan yog‘gan qor tagida muzlaydi go‘yo. Tunlarini oydinlatgan oy yuzini bulutlar to‘radi.

Asar yakunida esanqahramonning ruhiy evolyutsiyasi “umiddan umidsizlikka qaytish” kabi tasvirlanadi.

Xulosa:

Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” qissasi inson ruhiyatini yoritishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Muallif bosh qahramonning ichki kechinmalarini mayin, ammo chuqur psixologik qatlamlarda ko‘rsatadi. Yolg‘izlik, orzuga qochish, muhabbatga tashnalik, rad etilish, ichki sinish — bularning barchasi qahramonning murakkab ruhiy evolyutsiyasini tashkil qiladi.

Nastenka obrazi esa qahramonning ruhiy uyg‘onishiga sabab bo‘luvchi, shu bilan birga uning og‘riqli tushkunligiga ham yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Qissa Dostoyevskiyning psixologik realizm maktabiga asos solgan ilk asarlaridan bo‘lib, unda insonning ichki dunyosi tashqi voqelikdan ustun turadi. Bu esa “Oydin tunlar”ni adabiyotshunoslik, psixologik tanqid va badiiy tahlil nuqtai nazaridan doimo dolzarb asar qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.facebook.com/groups/badiiy/posts/7169539556447755/>
2. <http://vmtheatre.ru/performances/belyenochi.html>
3. https://uzpedia.uz/pedia/oydin_tunlar_roman